



PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF GLOBAL COMMUNICATIVE COOPERATION IN A DIGITAL SOCIETY

Boymurodov Ilkhombek Khayitmurodovich

Independent Researcher, Tutor at Denau Institute of

Entrepreneurship and Pedagogy

Email: haydarovz.history@gmail.com

Phone: +998 77 092 44 87

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21835039>

ARTICLE INFO

Received: 24th July 2026

Accepted: 29th July 2026

Online: 30th July 2026

KEYWORDS

Digital society,
technology, information,
artificial intelligence,
cooperation, digital
technologies, integration.

ABSTRACT

This article examines the concept of a digital society, as well as the importance of cooperation between sectors and humanity in the era of global change, and the foundations of shaping social processes through digitalization. It also scientifically analyzes issues such as global communicative cooperation, philosophical research, and the inextricable connection with scenarios of an informed humanity.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ГЛОБАЛЬНОГО КОММУНИКАТИВНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Боймуродов Илхомбек Хайтмуродович

Независимый исследователь, тьютор Денауского института

предпринимательства и педагогики

Email: haydarovz.history@gmail.com

Тел.: +998 77 092 44 87

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21835039>

ARTICLE INFO

Received: 24th July 2026

Accepted: 29th July 2026

Online: 30th July 2026

KEYWORDS

Цифровое общество,
технологии,
информация,
искусственный
интеллект,
сотрудничество,
цифровые технологии,
интеграция.

ABSTRACT

В данной статье рассматривается концепция цифрового общества, а также важность сотрудничества между секторами и человечеством в эпоху глобальных перемен и основы формирования социальных процессов посредством цифровизации. Также проводится научный анализ таких вопросов, как глобальное коммуникативное сотрудничество, философские исследования и неразрывная связь со сценариями информированного человечества.

RAQAMLI JAMIYATDA GLOBAL KOMMUNIKATIV HAMKORLIKNING FALSAFIY TAHLILI

Boymurodov Ilxombek Xayitmurodovich

Mustaqil tadqiqotchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika

instituti tyutori haydarovz.history@gmail.com, +99877 092 44 87

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21835039>



ARTICLE INFO

Received: 24th July 2026

Accepted: 29th July 2026

Online: 30th July 2026

KEYWORDS

Raqamli jamiyat, texnologiya, axborot, sun'iy intellekt, hamkorlik, raqamli texnologiyalar, integratsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada raqamli jamiyatda tushunchasi, shuningdek global o'zgarishlar davrida sohalar hamda insoniyat o'rtasidagi hamkorlikning naqadar muhim ahamiyat kasb etishi hamda raqamlashtirish orqali ijtimoiy jarayonlarni shakillantirish asoslari o'rganilgan. Shuningdek global kommunikativ hamkorlik, falsafiy izlanishlar va axborotlashgan insoniyat senariylari bilan uzviy bog'liqligi kabi masalalari ilmiy tahlil qilingan.

Kirish

Raqamli jamiyat istiqbollari masalasi global kommunikativ hamkorlik, falsafiy izlanishlar va axborotlashgan insoniyat senariylari bilan uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy falsafiy tafakkur uchun yangi gorizontlarni ochib bermoqda. Yu. Habermas global muloqotning mohiyatini tahlil qilar ekan, "haqiqiy kommunikativ oqilonalik umumiy manfaat va kelishuvga yo'naltirilgan muloqot maydonini talab qiladi" deya qayd etadi (Habermas, 1984, p. 285).¹ Bu fikr global kommunikativ hamkorlikning kelajakda insoniyat barqaror taraqqiyoti uchun muhimligini anglatadi. Biroq tanqidiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, kommunikatsiya jarayonlari har doim ham mutlaq ochiqlik va tenglikka asoslanmaydi, chunki ularni siyosiy va iqtisodiy kuch markazlari algoritmik tarzda boshqarishi mumkin. Shu sababdan, kelajakdagi global muloqot insoniyatning umumiy qadriyatlari va raqamli adolat tamoyillari asosida qayta qurilishi zarur. Shu sababli ushbu masalani ilmiy tahlil qilib chiqamiz.

Asosiy qism

Bugungi kunda insoniyat hayotinig har bir lahzasini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada olimlarning ilmiy va falsafiy qarashlarini ko'rib chiqamiz. Raqamli texnologiyalar rivojlangani sari bu boradagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan tesizlarni o'rtaga tashlaydi. Falsafiy izlanishlar kontekstida E. Morin "insoniyat murakkablikni tushunish orqali o'zining kelajagini shakllantirishi kerak" deya ta'kidlaydi (Morin, 2008, p. 45).² Morinning murakkablik paradigmasi kelajak ssenariylarini tushunishda muhim nazariy asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi. Uning nazariyasidan kelib chiqib aytish mumkinki, insoniyat kelajagini faqat texnologik rivojlanish emas, balki madaniy, axloqiy va falsafiy birliklar ham belgilaydi. Tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, murakkablikni e'tibordan chetda qoldirgan konsepsiyalar soddalashtirilgan va deterministik qarashlarga olib kelishi mumkin, bu esa kelajakni to'laonli anglash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, falsafiy izlanishlar axborotlashgan

¹ Habermas, J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. Boston: Beacon Press, 1984. – p. 285.

² Morin, E. On Complexity. Cresskill, NJ: Hampton Press, 2008. – p. 45.



davrda yanada integrativ va ko'p qirrali bo'lishi lozim.

Kelajak istiqbollari masalasi global kommunikativ hamkorlik, falsafiy izlanishlar va axborotlashgan insoniyat senariylarini qamrab olgan holda zamonaviy tafakkurning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. I. Wallerstein global tizim haqidagi tahlilida "kelajakdagi insoniyat taqdiri alohida millatlar yoki mintaqalarga emas, balki yagona dunyo tizimining barqarorligiga bog'liq" deya ta'kidlaydi (Wallerstein, 2004, p. 32).³ Ushbu qarash global kommunikativ hamkorlikning kelajakda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning hal qiluvchi omili bo'lishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, Wallersteinning yondashuvi ijobiy tarzda insoniyat birligi zaruratini ta'kidlaydi, biroq tanqidiy qarash bilan aytganda, global tizimning murakkabligi va notekis rivojlanishi kelajakdagi hamkorlikni murakkablashtiruvchi xavf sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shuningdek J.Derrida o'zining dekonstruktiv yondashuvida "kelajak har doim noaniqdir, u hech qachon mutlaq mavjud emas, balki kelish jarayonida doimiy ravishda yaratiladi" deya qayd etadi (Derrida, 1994, p. 37).⁴ Bu fikr insoniyat kelajagini tayyor senariy sifatida emas, balki falsafiy va madaniy izlanishlar orqali shakllanadigan dinamik jarayon sifatida anglash imkonini beradi. Derridaning konsepsiyasiga ilmiy munosabat shuni

ko'rsatadiki, falsafiy tafakkur kelajakni aniq belgilangan natija emas, balki ochiq imkoniyatlar maydoni sifatida talqin qilishi kerak. Biroq bu jarayonning haddan tashqari relativistik talqini amaliy qaror qabul qilishda ma'lum darajada beqarorlik va yo'nalishsizlik xavfini yuzaga chiqaradi.

Global kommunikativ hamkorlik, falsafiy izlanishlar va axborotlashgan insoniyat senariylari o'zaro bog'langan murakkab jarayonlar sifatida talqin qilinishi lozim. M. Heidegger texnologiya va insoniyat kelajagi haqidagi mulohazalarida "inson mavjudligi texnologik jarayonlar orqali belgilab borilmoqda, texnologiya esa oddiy vosita emas, balki dunyoni idrok etish tarzimizni shakllantiruvchi kuchdir" deya ta'kidlaydi (Heidegger, 1977, p. 12).⁵ Ushbu qarashdan kelib chiqib aytish mumkinki, kelajak istiqbollari faqat ilmiy-texnik yutuqlar natijasi sifatida emas, balki falsafiy yondashuvlar orqali tushunilishi zarur. Ilmiy munosabat bildiradigan bo'lsak, Heidegger texnologiya va mavjudlikni ontologik bog'liq hodisalar sifatida ochib beradi, biroq zamonaviy axborotlashgan dunyoda texnologiyaning faqat xavf emas, balki hamkorlik va taraqqiyot manbai sifatidagi qirralarini ham ko'rish lozim.

Shuningdek Global kommunikativ hamkorlikning kelajakdagi ahamiyatini M. Castells o'zining tarmoq jamiyati nazariyasida yoritib, "axborot oqimlarini

³ Wallerstein, I. World-Systems Analysis: An Introduction. Durham: Duke University Press, 2004. – p. 32.

⁴ Derrida, J. Specters of Marx: The State of the Debt, the Work of Mourning and the New International. New York: Routledge, 1994. – p. 37.

⁵ Heidegger, M. The Question Concerning Technology. New York: Harper & Row, 1977. – p. 12.



kim nazorat qilsa, kelajakdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni ham u boshqaradi” deya yozadi (Castells, 2010, p. 31).⁶ Bu fikr global muloqot va hamkorlikning markaziy omili sifatida axborot oqimlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko’rsatadi. Tanqidiy nuqtai nazardan qaranganda, axborot oqimlari ustidan nazoratning notekis taqsimlanishi kelajakdagi kommunikativ hamkorlikni xavf ostiga qo’yishi mumkin, shu bois axborot adolatini ta’minlash global hamkorlikning asosiy sharti sifatida qaralishi lozim. Axborotlashgan jamiyat haqida esa E. Toffler “uchinchi to’lqin” konsepsiyasida shunday yozadi: “kelajak jamiyatida axborot ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarishdan ko’ra ustuvor ahamiyat kasb etadi” (Toffler, 1980, p. 25).⁷ Bu yondashuv axborotlashgan jamiyatda insoniyat istiqbollari moddiy resurslarga emas, balki bilim, innovatsiya va raqamli kapitalga tayanishini ko’rsatadi. Shu bilan birga, tanqidiy baho shuni ko’rsatadiki, axborotning haddan tashqari ko’pligi va ularning algoritmik tartibga solinishi inson ongini boshqarish va ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish xavfini ham yuzaga keltiradi. Demak, axborotlashgan insoniyat ssenariylari global imkoniyatlar va xavf-xatarlarni o’zida mujassamlashtiruvchi murakkab jarayondir.

Falsafiy va ilmiy tahlillarga asosan axborotlashgan jamiyat va undagi

insonlarning o’rni borasida M. Poster shunday deydi: “raqamli kommunikatsiya insoniyatni o’zining yangi identitetini yaratishga majbur qiladi, bu identitet esa axborot oqimlari va tarmoq tuzilmalariga chambarchas bog’liq” (Poster, 1995, p. 87).⁸ Bu yondashuv axborotlashgan jamiyat kelajakda insonning shaxsiyati, ijtimoiy roli va ijtimoiy ongini qayta shakllantirishini ko’rsatadi. Ilmiy munosabat sifatida aytish mumkinki, Postering nazariyasi axborotlashgan ssenariylarning ijobiy jihatlari — global integratsiya va bilim almashinuvi — bilan bir qatorda, salbiy oqibatlar — identitet inqirozi va ongni manipulyatsiya qilish — xavfini ham ochib beradi. Kelajak istiqbollari masalasi global kommunikativ hamkorlik, falsafiy izlanishlar va axborotlashgan insoniyat ssenariylari bilan uzviy bog’langan holda qaralishi lozim, chunki XXI asrda taraqqiyotning o’zi ijtimoiy muloqotning ochiqligi, bilish jarayonlarining falsafiy asoslanishi va axborot oqimlarining global boshqarilishi bilan chambarchas tutashib ketdi. A. Appadurai “global oqimlar” nazariyasida shunday yozadi: “kelajak jamiyatlari milliy chegaralar bilan emas, balki axborot, texnologiya va odamlarning transmilliy oqimlari bilan belgilanadi” (Appadurai, 1996, p. 33).⁹ Bu qarash global kommunikativ hamkorlikning kelajakda insoniyat hayotining asosiy modeli sifatida shakllanishini ko’rsatadi. Ilmiy

⁶ Castells, M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. — p. 31.

⁷ Toffler, A. The Third Wave. New York: William Morrow, 1980. — p. 25.

⁸ Poster, M. The Second Media Age. Cambridge: Polity Press, 1995. — p. 87.

⁹ Appadurai, A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. — p. 33.



munosabat bildiradigan bo'lsak, Appadurai global oqimlarning ijobiy imkoniyatlarini ochib bergan bo'lsa-da, ularning notekis taqsimlanishi va nazorat qilinishi yangi ijtimoiy tengsizliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini ham nazardan qochirmaslik kerak. Axborotlashgan jamiyatda insoniyatning mavjudligi atomlar emas, balki bitlar orqali ifodalanadi" Bu qarash axborotlashgan jamiyatning tub mohiyatini, ya'ni materiyaviy mavjudlikdan ko'ra axborot oqimlariga asoslanayotgan yangi sivilizatsion bosqichni anglatadi. Ilmiy baho sifatida aytish mumkinki, Negroponte kelajakdagi axborotlashgan ssenariylarning kuchli tomonlarini tezkorlik, universallik va global integratsiya — ta'kidlagan, biroq ularning salbiy jihatlari — ongni manipulyatsiya qilish, identitetning sun'iy shakllanishi va axborot monopoliyalarining kuchayishi — ham chuqur tahlil etilishi zarur.

Kelajak istiqbollari va global kommunikativ hamkorlik, falsafiy izlanishlar va axborotlashgan insoniyat ssenariylari bilan uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy tafakkur uchun yangi nazariy va amaliy ufqlarni ochib bermoqda. A. Giddens zamonaviylikning mohiyatini tahlil qilar ekan, "globalizatsiya insoniyat hayotini bir butun tizim sifatida qayta tashkil etmoqda, bunda vaqt va makonning klassik chegaralari tobora nisbiylashmoqda" deya ta'kidlaydi (Giddens, 1990, p. 64).¹⁰ Bu qarash kelajakdagi global kommunikativ hamkorlik nafaqat iqtisodiy va siyosiy

integratsiya, balki ijtimoiy ongning yangi shakllanishiga ham xizmat qilishini ko'rsatadi. Biroq tanqidiy nuqtai nazardan, globalizatsiyaning bunday talqini madaniy tafovutlar va notekis rivojlanish oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy tangliklarni yetarlicha hisobga olmaydi. Bundan tashqari insoniyat o'z kelajagini o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini shakllantirish jarayonlari orqali yaratadi. Ushbu qarashidan kelib chiqib, kelajak istiqbollari texnologik innovatsiyalar yoki iqtisodiy modellar bilan emas, balki falsafiy va axloqiy o'zgarishlar orqali ham belgilanadi. Bu yondashuv insoniyatni kelajakni yaratishda faol subyekt sifatida ko'rsatadi, biroq tanqidiy munosabat shuni ko'rsatadiki, Insonning o'zini tarbiyalash g'oyasi global ijtimoiy tengsizlik va siyosiy kuch muvozanatlarini inobatga olmaganda, utopik talqinlarga moyil bo'lib qolishi mumkin. Bugungi Axborotlashgan jamiyatda insoniyat hayoti borasida M. Castells shunday deydi: "tarmoq jamiyatida hokimiyat axborot oqimlarini boshqarish orqali amalga oshiriladi" (Castells, 2000, p. 389).¹¹ Bu fikr axborotlashgan kelajak ssenariylarining ijtimoiy va siyosiy oqibatlarini ochib beradi: kim axborot oqimlarini nazorat qilsa, u kelajakdagi global ijtimoiy tuzilmalarning shakllanishida hal qiluvchi o'ringa ega bo'ladi. Shu bilan birga, tanqidiy nuqtai nazardan, bunday ssenariy global erkinlik va demokratik qadriyatlarga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababdan, axborotlashgan kelajakni inson huquqlari va

¹⁰ Giddens, A. The Consequences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990. — p. 64.

¹¹ Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2000. — p. 389.



kommunikativ adolat tamoyillari asosida shakllantirish zarur.

Insonlar o'rtasidagi munosabatlar muloqot asosida amalga oshadi. Bu jarayon esa kelajakdagi global kommunikativ hamkorlikning nafaqat siyosiy, balki falsafiy va ijtimoiy birlikni ta'minlashdagi hal qiluvchi rolini ochib beradi. Biroq tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, ideal kommunikatsiya shakli hozirgi axborotlashgan davrda ko'pincha manipulyatsiya va algoritmik boshqaruv tahdidlari bilan to'qnash keladi, shu sababdan kelajakdagi hamkorlik demokratik muloqot bilan bir qatorda texnologik adolatni ham talab etadi. Adolat mavjud bo'lgan yerda albatta ma'naviy yetuklik talab etiladi. Shuning uchun ham insoniyat istiqbollari faqat iqtisodiy yoki texnologik omillarga bog'liq emasligini, balki falsafiy izlanishlarning chuqurligi va ruhiy birlikning mustahkamligi bilan ham belgilanayotganini ko'rsatadi. Tanqidiy munosabat sifatida aytish mumkinki, bu qarashi universallik idealiga tayanadi, biroq zamonaviy geosiyosiy keskinliklar va ijtimoiy tafovutlar sharoitida bunday birlikni shakllantirish nihoyatda murakkab kechadi. Shunga qaramay, falsafiy izlanishlarning integrativ kuchini rad etib bo'lmaydi, chunki ular kelajakda insoniyat oldida turgan dolzarb masalalarni o'zida aks ettiradi. Endi bevosita axborot jamiyatidan axborotlashgan insoniyat kelajagi masalasida J. Beniger "axborot inqilobi jamiyatni boshqarishning yangi paradigmasini yaratib, inson

faoliyatining barcha sohalarini qayta tashkil etmoqda" deya qayd etadi (Beniger, 1986, p. 9).¹² Bu qarash kelajak ssenariylarida axborot oqimlari va algoritmik tartibotlarning markaziy o'rin tutishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, axborot oqimlarining haddan tashqari nazorat qilinishi inson erkinligi va ongiy mustaqillikka xavf solishi mumkin. Shunday ekan, axborotlashgan kelajakning ijobiy istiqbollari faqat global adolat, ochiqlik va axborot xavfsizligini ta'minlash bilan uyg'un holda amalga oshadi. Kelajak istiqbollari masalasi global kommunikativ hamkorlik, falsafiy izlanishlar va axborotlashgan insoniyat ssenariylari bilan uyg'un holda qaralganda, zamonaviy tafakkur uchun muhim konseptual asoslarni yuzaga keltiradi. U. Beck "risk jamiyati" nazariyasida "kelajak ssenariylari nafaqat taraqqiyot imkoniyatlari, balki global miqyosda yuzaga keladigan xavflar va noaniqliklarni boshqarish qobiliyati bilan ham belgilanadi" deya ta'kidlaydi (Beck, 1992, p. 21).¹³ Bu qarashdan kelib chiqib aytish mumkinki, global kommunikativ hamkorlik faqat integratsiya emas, balki umumiy xavflarni boshqarish va barqaror kelajakni ta'minlash mexanizmi sifatida qaralishi kerak. Tanqidiy nuqtai nazardan, Beckning modeli insoniyatni xavf-xatarlarni ongli anglashga undasada, amaliyotda xalqaro manfaatlar to'qnashuvi global muloqotning samaradorligini zaiflashtirishi mumkin.

¹² Beniger, J. The Control Revolution: Technological and Economic Origins of the Information Society. Cambridge: Harvard University Press, 1986. – p. 9.

¹³ Beck, U. Risk Society: Towards a New Modernity. London: Sage Publications, 1992. – p. 21.



Axborotlashgan insoniyat kelajagi haqida M. Floridi shunday deydi: “infosfera — bu insoniyatning yangi yashash muhiti bo‘lib, unda axborot oqimlari biologik va ijtimoiy jarayonlar qadar muhim ahamiyat kasb etadi” (Floridi, 2014, p. 93).¹⁴ Bu yondashuv axborotlashgan jamiyatni kelajakdagi insoniyatning “ontologik makoni” sifatida talqin etadi. Tanqidiy qarash bilan aytganda, Floridi konsepsiyasi axborotlashgan ssenariylarning ijobiy qirralarini — bilimning kengayishi, tezkor kommunikatsiya, global integratsiya — yoritadi, biroq ularning salbiy oqibatlarini — ongni manipulyatsiya qilish, axborot monopoliyalarining kuchayishi va shaxsiy erkinliklarning torayishi — ham mavjudligini nazardan qochirmaslik lozim.

Xulosa

Raqamli kommunikativ reallikning zamonaviy jamiyatda paydo bo‘lishi, axborot oqimining cheksizligi, inson tafakkuriga bo‘lgan ta’siri va ijtimoiy ongni boshqarishning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Ijtimoiy falsafa bu jarayonlarni nafaqat texnologik taraqqiyot sifatida, balki madaniy, epistemologik va ontologik o‘zgarishlar tizimida ko‘rib chiqadi. Axborot erkinligi ideali va nazorat mexanizmlarining o‘zaro qarama-qarshiligi ijtimoiy muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomonda, raqamli texnologiyalar axborotga kirish erkinligini ta’minlab, fuqarolik jamiyatini mustahkamlasa, boshqa tomondan, davlatlar va korporatsiyalar tomonidan amalga oshirilayotgan sun’iy intellekt asosidagi

kuzatuv tizimlari shaxsiy hayot daxlsizligini jiddiy xavf ostiga qo‘ymoqda. Bu esa axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning global miqyosdagi dolzarb falsafiy muammosini yuzaga keltiradi.

Sun’iy intellekt va algoritmik kommunikatsiyaning rivojlanishi inson tafakkuri va bilim ishlab chiqarish jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Ijtimoiy falsafa bunday o‘zgarishlarni tafakkurning avtomatlashtirilishi va bilim epistemologiyasining algoritmallashtirilishi sifatida talqin qiladi. Inson bilimi endilikda sub’ektiv tajriba va tafakkurdan emas, balki ma’lumotlar to‘plami va statistik modellarga asoslangan algoritmik tahlildan kelib chiqmoqda. Bu esa ijtimoiy amaliyotlarda axloqiy va estetik mezonlar emas, balki ma’lumot asosidagi funksional va hisob-kitobli yondashuvlar ustuvorlikka ega bo‘lishiga olib kelmoqda. Natijada, sun’iy intellekt nafaqat vosita, balki ijtimoiy harakatlarning koordinatoriga aylanib, ongli qarorlar o‘rnini avtomatik protokollar egallamoqda. Bu jarayon ontologik jihatdan insoniyatning agentlik maqomiga yangi falsafiy savollarni tug‘diradi.

Raqamli jamiyatda global kommunikativ hamkorlikning shakllanishi esa milliy va madaniy chegaralarning nisbiylashuviga olib kelmoqda. Ijtimoiy falsafa bu holatni yangi axborot makonining paydo bo‘lishi, universal sivilizatsion senariylar va umumiy ontologik mezonlar shakllanishi nuqtai nazaridan baholaydi. Shu bilan

¹⁴ Floridi, L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford: Oxford University Press, 2014. — p. 93.



birga, axborotlashgan insoniyat kontsepsiyasi – insoniyatning o'zini axborot sub'ekti sifatida qayta idrok etishi – yangi antropologik paradigma sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday jamiyatda axborot nafaqat resurs, balki mavjudlikning asosiy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa falsafiy izlanishlarda klassik metafizik yondashuvlardan axborot asosidagi mavjudlik tushunchasiga o'tishni taqozo etadi.

Umuman olganda, raqamli kommunikativ reallik ijtimoiy falsafa

uchun inson, tafakkur va jamiyat o'rtasidagi tarixiy aloqa zanjirini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar o'z-o'zini anglash, axloqiy tanlov va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalarini yangilash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli, zamonaviy raqamli davrda ijtimoiy falsafa texnologik yutuqlarni nafaqat instrumental vosita, balki ijtimoiy mavjudlikni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida tahlil qilishga intiladi.

References:

1. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. Boston: Beacon Press, 1984. – p. 285.
2. Morin, E. On Complexity. Cresskill, NJ: Hampton Press, 2008. – p. 45.
3. Wallerstein, I. World-Systems Analysis: An Introduction. Durham: Duke University Press, 2004. – p. 32.
4. Derrida, J. Specters of Marx: The State of the Debt, the Work of Mourning and the New International. New York: Routledge, 1994. – p. 37.
5. Heidegger, M. The Question Concerning Technology. New York: Harper & Row, 1977. – p. 12.
6. Castells, M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. – p. 31.
7. Toffler, A. The Third Wave. New York: William Morrow, 1980. – p. 25.
8. Poster, M. The Second Media Age. Cambridge: Polity Press, 1995. – p. 87.
9. Appadurai, A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. – p. 33.
10. Giddens, A. The Consequences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990. – p. 64.
11. Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2000. – p. 389.
12. Beniger, J. The Control Revolution: Technological and Economic Origins of the Information Society. Cambridge: Harvard University Press, 1986. – p. 9.
13. Beck, U. Risk Society: Towards a New Modernity. London: Sage Publications, 1992. – p. 21.
14. Floridi, L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford: Oxford University Press, 2014. – p. 93.